



KONSEPTLARNING TIL ORQALI OBYEKTIVLASHUVI:
METAFORIK MODELLASHTIRISH, NOMINATSIYA VA
SEMANTIK TARMOQLAR.

N.Q. Bo‘riyeva

Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti

JDPU, Jizzax, O‘zbekiston

D.O‘. Imomqulov

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası tayanch doktorant

Guliston Davlat Universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya

Mazkur maqolada konseptlarning til vositasida obyektivlashuvi jarayoni tahlil qilinadi. Konseptualizatsiyaning metaforik modellashtirish, nominatsiya va semantik tarmoqlar bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, "vijdon azobi" va konsepti misolida metaforik modellashtirish mexanizmlari, nominatsiyaning turlari va ularning lingvokognitiv, lingvopragmatik hamda lingvokulturologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslikning yetakchi namoyandalari J. Lakoff, M. Jonson, E.S. Kubryakova, R. Langacker, shuningdek, o'zbek tilshunoslari O. Fozilov, D. Xudoyberganova va Sh. Safarovning nazariy qarashlariga tayanilgan.

Kalit so'zlar: konsept, obyektivlashuv, nominatsiya, metafora, semantik tarmoqlar, kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, vijdon azobi, g'urur, o'zbek milliy konseptlari.



Abstract

This article analyzes the process of objectification of concepts through language. The stages of conceptualization—metaphorical modeling, nomination, and semantic networks—are scientifically elucidated. In particular, the mechanisms of metaphorical modeling, types of nomination, and their linguocognitive, linguopragmatic, and linguocultural features are examined using the example of the concept "remorse" (vijdon azobi). The research draws upon the theoretical views of prominent representatives of cognitive linguistics, including J. Lakoff, M. Johnson, E.S. Kubryakova, R. Langacker, as well as Uzbek linguists O. Fozilov, D. Khudoyberganova, and Sh. Safarov.

Keywords: concept, objectification, nomination, metaphor, semantic networks, cognitive linguistics, linguopragmatics, linguoculturology, remorse, pride, Uzbek national concepts.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс объективации концептов посредством языка. Научно освещены этапы концептуализации — метафорическое моделирование, номинация и семантические сети. В частности, на примере концептов «угрызения совести» (vijdon azobi) рассмотрены механизмы метафорического моделирования, типы номинации, а также их лингвокогнитивные, лингвопрагматические и лингвокультурологические особенности. Исследование опирается на теоретические взгляды ведущих представителей когнитивной лингвистики Дж. Лакоффа, М. Джонсона, Е.С. Кубряковой, Р. Лангакера, а также узбекских языковедов О. Фозилова, Д. Худойбергановой и Ш. Сафарова.

Ключевые слова: концепт, объективация, номинация, метафора, семантические сети, когнитивная лингвистика, лингвопрагматика, лингвокультурология, угрызения совести, гордость, узбекские национальные концепты.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv yondashuvning kuchayishi, konseptlarning tilda ifodalanish mexanizmlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortirmoqda. O'tgan asrlarda paydo bo'lgan ushbu lingvistik yo'nalish inson idroki va tillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashda asosiy vositalardan biri sifatida foydalanilmoqda. Inson tafakkuri va til o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, mavhum tushunchalarning qanday qilib til vositalari orqali ifodalanishini tushunish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki psixolingvistika, sotsiolingvistika sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek tilshunosligida konseptlarning metaforik modellashirilishi, nominatsiya jarayonlari va semantik tarmoqlarining shakllanishi masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan bo'lib, ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – konseptlarning til orqali obyektivlashuvida metaforik modellashirish, nominatsiya va semantik tarmoqlarning rolini ochib berish hamda ularning o'zbek tilidagi xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: kognitiv tahlil – konseptlarning tuzilishini va ularning metaforik modellarini aniqlash uchun; komponent tahlil – nominativ birliklarning semantik tarkibini o'rganish uchun; kontekstual tahlil – nominativ birliklarning nutqiy vaziyatlarda qo'llanilishini tahlil qilish uchun, semantik maydon tahlili – konseptlarning



o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun, deskriptiv metod – kuzatilgan hodisalarni tavsiflash uchun, qiyosiy-tipologik metod – turli konseptlarning metaforik modellarini solishtirish uchun;

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

"Konsept" tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi. E.S. Kubryakova fikricha, "konsept – bu inson ongidagi mental birlik bo'lib, u dunyo haqidagi bilimlarimizni saqlaydi va ularni tizimlashtiradi" [8, 67]. V.I. Karasik esa "konsept – bu muayyan millatning dunyoqarashi, madaniyati va tarixiy tajribasi bilan bog'liq murakkab mental tuzilma" deb ta'riflaydi [10, 129]. O'zbek tilshunosi D. Xudoyberganova fikricha, "konsept – til va tafakkur birligi bo'lib, unda milliy-madaniy xususiyatlar mujassamlashadi" [11, 45]. Konseptlar inson ongida shakllanadi va saqlanadi bunda insonning orttirgan tajribalari muhim o'rin tutadi, ular idrokimizga yetib kelganda bizlar uchun nisbatan mavhum bo'lib ularni anglash bizdan biroz vaqt talab qiladi. Konseptlar bir-biri bilan bog'liq holda mavjud bo'ladi va ular har bir millatning konseptual tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Konseptlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, rivojlanib boradi. Ularning obyektivlashuv jarayoni murakkab jarayon bo'lib ularni bir necha bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Konseptlarning til vositasida obyektivlashuvi murakkab lingvistik jarayon bo'lib, ushbu jarayon o'zida bir necha bosqichlarni mujassam etadi. Mazkur bosqichlarning har biri turli tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida fanga tatbiq etilgan bo'lib, keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan qayta ko'rib chiqilgan, takomillashtirilgan yoki ba'zi hollarda inkor etilgan. Mazkur murakkab jarayonni to'liq anglash va chuqur ilmiy tahlil qilishda uni bosqichlarga ajratgan holda o'rganish metodologik jihatdan samarali hisoblanadi. Jumladan: pertseptiv-idrokdan oldingi davir, konseptual-idrok daviri va lingvistik-idrokdan keyingi davirlar. Konseptualizatsiya jarayonining

konseptual-idrok bosqichini tahlil qilishdan oldin ungacha bo'lgan bosqichlarni eslab o'tish o'rinlidir. Obyektivlashuv jarayonining pertseptiv-idrokdan oldingi davri o'zida bir necha bosqichlarni mujassam etgan bo'lib ular quyidagilardan iborat: ekstralingvistik omillar, sensor-hissiy bosqich va mental bosqich. Ekstralingvistik omillar bosqichi – tashqi dunyodagi narsa va hodisalarning mavjudligi, ularning inson tomonidan idrok etilishiga zamin yaratadi. Sensor-hissiy bosqich – inson sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, sezish) orqali atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni idrok etadi. Mental-kognitiv bosqich – sensor ma'lumotlar qayta ishlanadi, tahlil qilinadi va dastlabki mental tuzilmalar shakllana boshlaydi. Ushbu uch bosqich J. Lakoff, R. Langacker va L. Talmy kabi yetakchi tilshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan bo'lib, ular konseptlarning idrok etilishigacha bo'lgan zarur shart-sharoitlar, shuningdek, ularning ongda shakllanishining dastlabki bosqichlarini yoritib bergan. Ushbu tadqiqotlar konseptual tizimning shakllanishi va ularning tilda ifodalanish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar

Yuqoridagi bosqishlardan so'ng konseptlar idrokimizda keyingi "konseptual" bosqichga o'tadi. Bu bosqichda sensor ma'lumotlar asosida konseptlar shakllanadi, ular turkumlashtiriladi va tizimlashtiriladi. Aynan shu bosqichda metaforik modellashtirish, nominatsiya va semantik tarmoqlash shakllanadi – mavhum tushunchalar jismoniy tajriba asosida oydinlashadi. Konseptualizatsiya jarayonining idrokda kechadigan muhim bosqichlaridan biri bu metaforik modellashtirishdir. Metaforalar bir necha ming yillar davomida tilshunoslar e'tibor markazida bo'lib kelgan va ular haqidagi ilk qarashlar yunon olimi Aristotel tomonidan ilgari surilgan. "Metafora" so'zining kelib chiqishi ham yunon tiliga borib taqaladi: ushbu atama "ko'chirish" yoki "bir joydan ikkinchi joyga olib o'tish" ma'nolarini anglatadi

[3, 21-28]. Aristotel metaforalarni she'riyatning bir san'at turi sifatida o'rganib, uni "bir narsaning nomini boshqa narsaga berish" deb ta'riflagan [4, 45-58]. Qisqacha qilib aytganda, metaforalar jismlar hamda konseptlar o'rtasidagi o'xshashliklar orqali ma'lum tushunchalarni ifodalash va bayon etish vositasidir. Metafora tilning boyligini oshirib, yangi so'z va iboralarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'plab leksik birliklar dastlab metafora sifatida ishlatilgan bo'lib, keyinchalik umumiy tilga kirgan. Shu tarzda metafora tushunchalarni yangicha talqin qilish imkonini beradi va tilning doimiy yangilanib borishiga hissa qo'shadi. Metafora yordamida til doimiy yangilanib boradi. Bu masala markazida Jorj Lakoff va Mark Jonsonning 1980-yilda nashr etilgan "Metaphors We Live By" (Biz yashab turgan metaforalar) kitobi turadi. Bu asar zamonaviy kognitiv tilshunoslikning poydevorlaridan biri hisoblanadi. Lakoff va Jonson ta'kidlashicha, metafora nafaqat she'riyat yoki notiqlik san'atiga xos bo'lgan bezak vositasi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmidir: "Metaforaning mohiyati bir turdagi narsani boshqa bir turdagi narsa orqali anglash va tajriba qilishdir" [5, 3]. Kognitiv tilshunoslikda metafora nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi, dunyoni anglash va turkumlash quroli sifatida talqin etiladi [5, 3-6]. Boshqacha aytganda, insonlar konseptualizatsiya jarayonida metaforalardan faol foydalanadilar: metaforalar konseptlarning tilda ifodalanishida, yangi tushunchalarni anglashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "vijdon azobi" konseptini olib ko'raylik. Bu tushuncha o'z tabiatiga ko'ra mavhum bo'lib, uni til vositasida ifodalash ancha murakkabdir. Inson bu holatni faqat bevosita yuz bergandagina his qilishi va anglab yetishi mumkin; aks holda, u mavhumligicha qolaveradi. Tilimizda esa "vijdon azobi" ko'pincha turli jismoniy predmetlar va hodisalar orqali izohlanadi. Ya'ni, abstrakt tushunchani jismoniy birliklar bilan bog'lab tushuntiramiz. "Vijdon azobi" inson tajribasidagi eng murakkab, eng chuqur ruhiy holatlardan biridir. Uni turli jismoniy tajribalar orqali anglash mumkin.

Har bir metafora ushbu mavhum tushunchaning turli qirralarini yoritadi. Xususan: Vijdon azobi – yukdir: Ma'lumki, "yuk" tabiatan ko'tarib yurilishi lozim bo'lgan, og'ir-yengil xususiyatiga ega bo'lgan buyum yoki jismdir. Aynan ana shu xususiyatlarni vijdon azobi tushunchasini izohlashda qo'llaymiz: vijdon azobi – yillab ko'tarib yurilishi kerak bo'lgan yukdir; u og'ir yukdir. Vijdon azobi – olovdir: u kuydiradi, qalbni yondiradi, iztirobga soladi. Vijdon azobi – o'q, nayza, tikondir: u qalbni o'rtaydi, og'ritadi, sanchiladi. O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida "Vijdon tikanidek sanchiladi yuragimga" degan ifoda mavjud. Sanchilish – og'riq tajribasi orqali vijdon azobini ifodalash; uning o'tkirligi, bezovta qilishi tasvirlangan. Vijdon azobi – soyadir: undan qochib qutulib bo'lmaydi, u insonni ta'qib etadi, doimo yonma-yon yuradi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida "Undan qochib qutulolmaysan, vijdon soyangday yoningda" degan ifoda uchraydi. Vijdon azobi – yopiq eshik ortidagi ovozdir: u bor, mavjud, ammo ko'rinmaydi; aniq eshitilmasa-da, mavjudligi seziladi va uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

"Vijdon – sud" metaforik modelida vijdon azobi sud sifatida talqin qilinadi. E. Vohidov she'rlarida "Vijdon sudi oldida bosh egaman" degan ifoda mavjud. Adolat – axloqiy me'yorlar bilan bog'lash; vijdonning inson ustidan hukm chiqaruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Birgina "vijdon azobi" konsepti inson tomonidan to'laqonli anglanishi uchun turli xil metaforik birliklar xizmat qiladi va ular tilshunoslik tadqiqotlarida doimiy ravishda o'rganiladi [6, 112-128]. Tilimiz bunday metaforalarga nihoyatda boy bo'lib, aynan shu jihat metaforalarning konseptualizatsiya jarayonidagi o'rni naqadar muhim ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Konseptlarning obyektivlashuvi jarayoni metaforik modellashtirishdan o'tgach, navbatdagi bosqich – nominatsiya jarayoni davom etadi. Mazkur bosqichda konseptlar muayyan tildagi birliklar vositasida nomlanadi va

ularning ma'nosi mustahkamlanadi. Yangi konsept paydo bo'lgach, uni nomlash bir necha usulda amalga oshishi mumkin: boshqa tillardan so'z o'zlashtirish, mavjud til birliklaridan ko'chma ma'noda foydalanish yoki butunlay yangi so'z yaratish yo'li bilan. O'zbek tilshunosi O. Fozilov ta'kidlashicha, "nominatsiya jarayoni nafaqat til birliklariga nom berish vositasi, balki ma'no yaratish va madaniy qadriyatlarni ifodalashning muhim lingvistik mexanizmi sifatida qaraladi" [7, 1]. Nominatsiya inson idroki bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u "odamlarning atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni tushunishi va ularni til vositalari orqali ifodalashidir" [7, 2]. Demak, nominatsiya jarayoni shaxsning madaniy mansubligi, yashash muhiti va dastlabki tajribalari asosida shakllanadi. Lingvopragmatik nuqtai nazardan nominativ birliklarning tanlanishi ko'p jihatdan ijtimoiy kontekst, maqsadli auditoriya xususiyatlari va nutqiy vaziyatning maqsadiga bog'liq. Bu birliklarning semantik hajmi va kontekstual ma'nosi aynan nutqiy vaziyat tomonidan belgilanadi [8, 234-256]. Kognitiv yondashuv vakillari, jumladan E.S. Kubryakova, J. Lakoff va M. Jonson nominatsiyani inson tafakkuridagi kategorizatsiya jarayoni bilan bog'laydi. Ularning fikricha, til birliklarining nominativ xususiyati insonning dunyoni idrok etish tarzi bilan uzviy bog'liq. Lakoff va Jonson ta'kidlaganidek, nominatsiya insonlarning atrof-olamdagi narsa va hodisalarni anglash hamda ularni til vositalari orqali ifodalash jarayonini aks ettiradi [5, 145-162]. Bundan tashqari, lingvokulturologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, ba'zi nominativ birliklar o'zbek milliy dunyoqarashining aksi sifatida xizmat qiladi, jamiyatda mavjud bo'lgan madaniy qadriyatlar va an'anaviy tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, "andisha", "hayo", "ibo", "mehmon", "oqsoqol", "mahalla", "hashar" kabi nominativ birliklar o'zbek xalqining milliy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Tilimizdagi nominatsiya jarayoni hosil bo'lish usuliga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Quyida ularning qisqacha tavsifi keltiriladi: So'z yasali

usuli orqali nominatsiya – bu usulda tilda mavjud yoki boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi nominativ birliklar hosil qilinadi. Masalan: bog' – bog'bon, ish – ishchi, paxta – paxtakor, o'q – o'quvchi, yoz – yozuvchi. Fonetik nominatsiya – bunda so‘zlar predmetlarning tabiatda hosil qilgan tovushlariga ko‘ra nomlanadi. Masalan: mushuk miyovladi, shamol uvilladi, suv shildiradi, barg shitirlaydi, qo'ng'iroq jiringladi. Kalkalash (so'zma-so'z tarjima)- bu usulda so'zlar boshqa tillardan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish orqali o'zlashtiriladi. Masalan: ingliz tilidagi "worldview" o'zbek tilida "dunyoqarash", ingliz tilidagi "ecosystem" o'zbek tilida "ekotizim", ingliz tilidagi "skyscraper" o'zbek tilida "osmono'par" shaklida kalkalangan. Semantik nominatsiya-bu tillardagi mavjud so'zlarning ma'nolarini kengaytirish orqali amalga oshadi. Dastlab tilda mavjud bo'lgan va keng qo'llanilib kelingan so'zlar yangi konseptlarning paydo bo'lishi bilan o'z ma'no doirasini kengaytiradi. Aytaylik, "xotira" – bu insonlarning eslab qolish qobiliyati, ammo raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bilan bu so'z texnik qurilmalarning ma'lumotlar saqlash sig'imini anglatuvchi konsept bilan boyitildi: kompyuter xotirasi, telefon xotirasi, flesh-xotira kabi. Metaforik nominatsiya- bu predmetlar o'rtasidagi o'xshashliklar ustiga qurilgan bo'lib, bunda bir predmet boshqa bir predmetga qaysidir jihatdan o'xshashligiga ko'ra nomlanadi. Jumladan: daryo oqimi – axborot oqimi, odamlar oqimi; tog' boshi – inson boshi; stol oyog'i – inson oyog'i; Metonimik nominatsiya- bu usulda predmetlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida nom ko'chishi yuz beradi. Masalan: choynak qaynadi -choynakdagi suv qaynadi, sinf yig'ildi -sinf o'quvchilari yig'ildi, qo'limda Oybek -Oybekning asari, Oq uy qaror qildi -AQSh hukumati. Vazifadoshlik asosida nominatsiya: Bunda predmetlar bajaradigan vazifasiga ko'ra nomlanadi. Masalan: qo'rg'oshin -qo'rg'on yasashda ishlatilgan, yuvg'ich-yuvish vositasi, o'chirg'ich -o'chirish quroli. Nominatsiya jarayoni faqat sanab o'tilgan turlar bilangina chegaralanib qolmaydi. Konseptlarning obyektivlashuv jarayoni ushbu turlarning turli

kombinatsiyalari hamda til va tafakkurning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yanada ko'p qirrali shakllarda amalga oshishi mumkin. Konseptlarning obyektivlashuvining navbatdagi muhim bosqichi semantik tarmoqlarning shakllanishidir. Semantik tarmoq deganda til birliklarining o'zaro semantik munosabatlar asosida bog'langan murakkab tizimi tushuniladi. Har bir konsept til tizimida yakka holda emas, balki boshqa konseptlar bilan turli munosabatlar (sinonimiya, antonimiya va boshqalar) orqali bog'langan holda mavjud bo'ladi [9, 78-95]. Masalan, "vijdon" konsepti o'zbek tilidagi semantik tarmog'ida quyidagi munosabatlar orqali namoyon bo'ladi: Sinonimik qator: vijdon, diyonat, insof, adolat, Antonimik munosabat: vijdon – vijdotsizlik, nomus – nomussizlik Assotsiativ munosabat: nomus, or, ibo, andisha, hayo Semantik tarmoqlar konseptlarning til tizimidagi o'rnini, ularning boshqa konseptlar bilan o'zaro aloqasini va milliy dunyoqarashdagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Konseptlarning semantik tarmoqlari tahlili. Har bir konsept til tizimida yakka holda emas, balki boshqa konseptlar bilan turli munosabatlar orqali bog'langan holda mavjud bo'ladi. "Vijdon" konseptining o'zbek tilidagi semantik tarmog'ini tahlil qiladigan bo'lsak, uning sinonimik qatorida diyonat, insof, nomus, adolat kabi so'zlar mavjud. Antonimik munosabatda vijdotsizlik, nomussizlik, andishasizlik, hayosizlik, ibosizlik kabi so'zlar turadi. Hosila so'zlar qatoriga vijdonan, vijdonli, vijdotsiz, vijdonlilik, vijdotsizlik kiradi. Frazologik birliklar qatorida vijdonini sotdi, vijdon azobi, vijdon sudi kabi ifodalar mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, konseptlarning til orqali obyektivlashuvi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u metaforik modellashtirish, nominatsiya va semantik tarmoqlar shakllanishi kabi muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Metaforik modellashtirish mavhum konseptlarni jismoniy tajriba asosida anglash imkonini bersa, nominatsiya jarayoni ularga til birliklari

shaklini beradi va ma'nosini mustahkamlaydi. Semantik tarmoqlar esa konseptlarning til tizimidagi o'rnini va boshqa konseptlar bilan munosabatini belgilaydi. Nominatsiya jarayoni turli usullar – so'z yasalishi, fonetik nominatsiya, kalkalash, semantik nominatsiya, metaforik va metonimik nominatsiya, vazifadoshlik asosida nominatsiya – orqali amalga oshadi. Ushbu usullarning har biri tilning boyishi va yangi konseptlarning ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. "Vijdon azobi" konsepti misolida ko'rinadiki, mavhum tushunchalar turli metaforik modellar orqali anglashiladi va tilimizda boy semantik tarmoq hosil qiladi. Bu esa kognitiv tilshunoslikning metafora, nominatsiya va semantik tarmoqlar haqidagi nazariy qarashlarining amaliy tasdig'idir. Lingvokulturologik nuqtai nazardan esa nominativ birliklar milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va an'anaviy tushunchalarni aks ettirib, tilning milliy-madaniy xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bois, konseptlarning til orqali obyektivlashuvini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki kognitiv psixologiya, madaniyatshunoslik va sotsiolingvistika uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites. Stanford University Press. – 45-67-betlar.
2. Talmy, L. (2000). Toward a Cognitive Semantics. MIT Press. – 89-102-betlar.
3. Harper, D. (2020). Online Etymology Dictionary. "Metaphor" entry. – 21-28-betlar.
4. Aristotel. (mil. avv. 335). Poetika. O'zbek tilidagi nashr: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 45-58-betlar.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press. – 3-6, 14-21, 145-162-betlar.

6. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press. – 112-128, 156-170-betlar.

7. Fozilov, O. (2020). The Study of the Theory of Nomination in Linguistics. Termez State Pedagogical Institute Journal, №2, 1-4-betlar.

8. Кубрякова, Е.С. (2004). Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Москва: Языки славянской культуры. – 67-89, 234-256-betlar.

9. Кубрякова, Е.С. (2012). В поисках сущности языка: Когнитивные исследования. Москва: Знак. – 123-145-betlar.

10. Карасик, В.И. (2002). Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена. – 129-145-betlar.

11. Xudoyberganova, D. (2015). O'zbek tili leksikasining kognitiv-semantik tahlili. Toshkent: Fan. – 45-67-betlar.

12. Quillian, M.R. (1968). Semantic Memory. In M. Minsky (Ed.), Semantic Information Processing. MIT Press. – 45-67-betlar.

13. Маслова, В.А. (2004). Когнитивная лингвистика. Минск: ТетраСистемс. – 78-95-

14. Safarov, Sh. (2008). Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor. – 112-134-betlar.

15. Yuldashev, B. (2020). O'zbek tilida milliy konseptlarning lingvokulturologik tahlili. O'zbek tili va adabiyoti, №3, 45-52-betlar.

16. Xolmanova, Z. (2019). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Akademnashr. – 89

17. Safarova, R. (2021). O'zbek tilida "baxt" konseptining lingvokognitiv tahlili. Filologiya masalalari, №2, 67-74-betlar.

18. Usmonova, Sh. (2020). O'zbek tilidagi ma'naviy-axloqiy konseptlarning lingvokulturologik tadqiqi. Toshkent: Mumtoz so'z. – 134-156-betlar.

